**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**
**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi**

# *60910300– Pediatriya ishi* bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

ЎзР ОЎМТВ
Буйруқ № 344
07 08 2023

**Toshkent-2023**

**IShLAB ChIQILGAN va KIRITILGAN**

- Toshkent pediatriya tibbiyot instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «07» 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining kasbiy standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’ muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi xududida malaka talablarini rasmiy chop etish xuquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tagishlidir.

| T/r | MUNDARIJA | bet |
|---|---|---|
| 1. | *60910300 - Pediatriya ishi* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi........................................................................................... | 4 |
| 1.1 | Qo'llanish sohasi........................................................................................... | 4 |
| 1.1.1. | *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Malaka talabining qo'llanishi........................................................................................... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.............................................. | 4 |
| 1.2. | *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi........................................................................... | 4 |
| 1.2.1 | *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari ......................................................................... | 4 |
| 1.2.2 | *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari............................................................................ | 5 |
| 1.2.3. | *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari............................................................................... | 5 |
| 1.2.4. | *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy vazifalari........................................................................................... | 5 |
| 2. | *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar | 6 |
| 2.1 | Umumiy kompetensiyalar.............................................................................. | 6 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar.............................................................................. | 7 |
| 2.3 | Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.................................................. | 8 |
| 2.3.1 | Kvalifikatsiya............................................................................................... | 9 |
| 2.3.2 | *60910300 - Pediatriya ishi* bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar,bo'yicha soatlar va kreditlar.................... | 9 |
| 2.3.3 | *60910300 - Pediatriya ishi* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi............................................................................... | 9 |
| | Bibliografik ma'lumotlar.............................................................................. | 14 |
| | Kelishuv varag'i........................................................................................... | 15 |

## 1. *60910300- Pediatriya ishi* bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

***60910300 - Pediatriya ishi*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi shaklda amalga oshiriladi. Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitish kredit modul tizimi asosida tashkil qilinadi.
Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 6 yil.

### 1.1. Qo'llanish sohasi

**1.1.1. *60910300 - Pediatriya ishi* Malaka talabining qo'llanilishi.**

***Malaka talabi 60910300 - Pediatriya ishi*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish u,chun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

***60910300 - Pediatriya ishi*** bakalavriat ta'lim yo'nalishi "Sog'likni saqlash" ta'lim sohasiga oid yo'nalishi bo'lib, u bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari davlat va nodavlat korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, davlat boshqaruv organlarida bolalar sog'ligini saqlash, mustaxkamlash, bolalikdagi kasalliklariing oldini olish va davolash bo'yicha kompleks masalalarni yechish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot ishlarida kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari,

kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

**1.2.2. *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

– sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

– tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

– jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

– ilmiy-tadqiqot jarayoni.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

**1.2.3. *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- tibbiy-profilaktik;
- tezkor va shoshilinch tibbiy yordam;
- tashhislash va davolash;
- reabilitatsiya;
- tibbiy-ijtimoiy;
- tashkiliy- boshkaruv;
- ilmiy-tadqiqot.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan so'ng professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishi mumkin.

Shuningdek, o'rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

**1.2.4. *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60910300 - Pediatriya ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Tibbiy - profilaktik faoliyatida:**

– aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;

– sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

– aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– tibbiy-profilaktika faoliyatida ilg'or, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

**Tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida:**

– shoshilinch holatlarni o'z vaktida aniqlash;

– kasalxonagacha bo‘lgan tez tibbiy yordamni ko‘rsatish;
– ko‘rsatmaga ko‘ra kasalxonaga yuborish.

**Tashhislash va davolash faoliyatida:**

– aholi orasida kasalliklarni erta tashhislash;
– umumiy amaliyot shifokori faoliyatida zamonaviy tashhislash usullaridan foydalanish;
– keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy usullardan foydalangan holda to‘g‘ri davolash;
– bemorlarni ko‘rsatmaga ko‘ra tor mutaxassislar bilan birgalikda olib borish va davolash;
– o‘z faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiyot standartlaridan foydalanish.

**Reabilitatsiya faoliyatida:**

– kasalliklar bo‘yicha reabilitatsiya chora tadbirlarini o‘tkazishga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalarni, muddatlarini to‘g‘ri aniqlash;
– reabilitatsiya chora-tadbirlarini to‘liq hajmda amalga oshirish;
– bemorlar o‘rtasida reabilitatsiya o‘tkazishda zamonaviy usullardan foydalanish.

**Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:**

– ijtimoiy soha himoya organlari va rahm-shafqat xizmatlari bilan hamkorlikda tibbiy-ijtimoiy xizmat turlarini tashkillashtirish va xizmat ko‘rsatish;
– aholi o‘rtasida jismoniy, tibbiy-ijtimoiy va psixologik nufuzni tiklash va rivojlantirish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

– sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inidagi davolash - profilaktika muassasalarida ishni tashkillashtirish va boshqarish;
– tibbiyot sohasidagi boshqaruvni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga mos tarzda takomillashtirish;
– aholi sog‘ligi holatining asosiy ko‘rsatkichlarini rejalashtirish, tahlil qilish va hisobot tayyorlash.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

– yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qila olish;
– eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazishda ishtirok etish;
– o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni tayyorlash va bibliografiyalarni tuzish;
– ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;
– ilmiy-tibbiy jurnallarga maqolalarni tayyorlash.

## 2. *60910300 -Pediatriya ishi* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

### 2.1. Umumiy kompetensiyalar:

– davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, tibbiy madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasbiy faoliyatida foydalana olish;
- ahborot texnologiyalarni kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qaror qabul kila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga ega bo‘lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar**:
- kasbiy faoliyatida axloqiy va deontologik tamoyillarni amalga oshirishni bilish;
- tibbiy xujjatlarni yuritish qoidalarini bilish;
- kasbiy muammolarni hal etish uchun inson organizmidagi morfofunksional, fiziologik holatlarni va patologik jarayonlarni baholashni bilish;
- tibbiy yordam ko‘rsatishda ko‘zda tutilgan tibbiy asbob-uskunalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- bolalar va katta yoshdagi bemorlar salomatligini saqlash va mustahkamlashda, shu jumladan sog‘lom turmush tarzini shakllanirishda, kasalliklar paydo bo‘lishi va (yoki) tarqalishining oldini olishda, ularni erta tashhislashga, sabablari va sharoitlarini aniqlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning paydo bo‘lishi va rivojlanishi,shuningdek atrof-muhit omillarining bolalar va kattalar sog‘ligiga zararli ta’sirini bartaraf etishga tayyor bo‘lish;
- profilaktik tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, sog‘lom bolalar va kattalar surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarni dispanser kuzatuvidan o‘tkazishga tayyor bo‘lish;
- epidemiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazish, radiatsiya holati yomolashgan, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda, o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar markazlarida aholini himoya qilishni tashkil etish;
- bolalar va kattalar salomatligi ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va tibbiy-statistik tahlil qilish uchun ijtimoiy va gigienik usullardan foydalanish;
- holatni aniqlash yoki kasallikning mavjudligi yoki yoqligini aniqlash uchun bemorlarning shikoyatlarini, anamnezidagi ma’lumotlarni, tekshiruv natijalarini, laboratoriya, instrumental, patologik va boshqa tadqiqotlarni yig‘ish va tahlil qilish;
- bemorlarda Xalqaro statistik tasnifi (43-Jahon sog‘liqni saqlash assambleyasi tomonidan qabul qilingan, X- qayta ko‘rish, Jeneva, 1989) va tegishli sog‘liq muammolariga muvofiq asosiy patologik holatlarni, kasallik belgilarini, sindromlarini, nozologik shakllarini aniqlash;

- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik tekshiruvini o‘tkazishda, tibbiy-ijtimoiy ekspertizani o‘tkazishda ishtirok etish, odamning biologik o‘limini aniqlash;
- turli nazologik shakllari bo‘lgan bemorlarni boshqarish taktikasini aniqlash;
- ambulatoriya sharoitida va kunduzgi statsionarda turli nozologik shakllari bo‘lgan bemorlarni boshqarish va davolash;
- to‘satdan o‘tkir kasalliklarga chalingan, bemorning hayotiga tahdid bilan birga kelmaydigan va shoshilinch tibbiy yordam talab etmaydigan surunkali kasalliklarning kuchaygan holatlarda birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish;
- shoshilinch tibbiy aralashuvni talab qiladigan sharoitda bo‘lgan bemorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishda ishtirok etish;
- fiziologik homiladorlikni tug‘ruq jarayonini o‘tkazish;
- favqulodda vaziyatlrda tibbiy yordam ko‘rsatishda, shu jumladan tibbiy evakuatsiya qilishda ishtirok etish;
- tibbiy reabilitatsiya va sanator-kurort davolanishga muhtoj vemorlarda tabiiy davolovchi omillar, dori-darmon, dorivor bo‘lmagan terapiya va boshqa usullardan foydalanish zarurligini aniqlash;
- bolalar va ularning ota-onalariga( qonuniy vakillariga), kattalarga sog‘likni saqlashning asosiy gigienik tadbirlarini, sog‘liqni saqlash va mustahkamlashga, kasallikning oldini olishga hissa qo‘shadigan asosiy fiziologik ko‘rsatkichlarni o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish;
- asosiy tibbiy–statistik ko‘rsatkichlardan foydalangan holda bemorlarga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini baholashda ishtirok etish;
- tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilish va ommaviy dalillarga asoslangan tibbiyotga asoslangan ravishda namoyish etish;
- ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish;

– fuqarolarning sog‘ligini muhofaza qilishga qaratilgan yangi usul va uslublarni amalga oshirishda ishtirok etish bo’yicha bilim berishi borasida ***ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.***

**2.3 Umumiy va kasbiy kompetensiyalarning egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko’nikmalarni egallashi o’quv rajasigamantiqiy ketmaketligida kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o’zlashtirish, amaliyotlarni o’tish hamda o’quv mashg’ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar-bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko’nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar- ta’lim yo’nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo’chimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo’llab-quvvtlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Malakaviy amaliyot- umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amaliy jarayonlari uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakillantirishga qaratiladi:

2.3.1 **Kvalifikasiya:** oilaviy shifokor pediatr

**2.3.2** ***60910300 -Pediatriya ishi*** **ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.**

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat | Ajratilgan kredit |
|---|---|---|
| Majburiy fanlar | 8550 | 315 |
| Tanlov fanlar | 420 | 14 |
| Malakaviy amaliyot | 810 | 27 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 120 | 4 |

***2.3.3 60910300 -Pediatriya ishi*** **bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | | **Majburiy fanlar** | **8550** | **315** | |
| 1.01 | O'T1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | FS1204 | Falsafa | 120 | 4 | 2 |
| 1.03 | D1404 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 4 |
| 1.04 | O'(R)T.TXT11208 | O'zbek (rus) tili. Tibbiyotda xorijiy til | 240 | 8 | 1-2 |
| 1.05 | OAN11-312 | Odam anatomiya | 360 | 12 | 1-3 |
| 1.06 | TBUG1106 | Tibbiy biologiya. Umumiy genetika | 180 | 6 | 1 |
| 1.07 | TK1206 | Tibbiy kimyo | 180 | 6 | 2 |
| 1.08 | LTTT1104 | Lotin tili va tibbiy terminologiya | 120 | 4 | 1 |
| 1.09 | TBF.TAT1106 | Tibbiy va biologik fizika. Tibbiyotda axborot texnologiyalari | 180 | 6 | 1 |
| 1.10 | Ps1304 | Psixologiya. | 120 | 4 | 3 |
| 1.11 | GSEM12-307 | Gistologiya, sitologiya, embriologiya | 210 | 7 | 2-3 |
| 1.12 | NFZ12-307 | Normal fiziologiya | 210 | 7 | 2-3 |
| 1.13 | BK13-408 | Biokimyo | 240 | 8 | 3-4 |
| 1.14 | MVI13-406 | Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya | 180 | 6 | 3-4 |
| 1.15 | KA14-504 | Klinik anatomiya (OXTA) | 120 | 4 | 4-5 |
| 1.16 | P13-44 | Patologiya | 390 | 13 | 4-5 |
| | | Patologik anatomiya | 180 | 6 | 4-5 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Patologik fiziologiya | 210 | 7 | 4-5 |
| 1.17 | FR14-506 | Farmakologiya | 180 | 6 | 3-4 |
| 1.18 | GXGTE15 04 | Gigiena, harbiy gigiena. Tibbiy ekologiya | 120 | 4 | 5 |
| 1.19 | JSMM1705 | Jamoat salomatligi. Marketing, menejment. | 150 | 5 | 7 |
| 1.20 | TKK1204 | Tibbiyot kasbiga kirish 1,2 | 120 | 4 | 2 |
| 1.21 | BKP14-508 | Bolalar kasalliklari propedevtikasi | 240 | 8 | 4-5 |
| 1.22 | P16-1018 | Pediatriya | 540 | 18 | 6-10 |
| 1.23 | N11004 | Neonatologiya | 120 | 4 | 10 |
| 1.24 | ShP1904 | Shoshilinch pediatriya | 120 | 4 | 9 |
| 1.25 | IKP14-506 | Ichki kasalliklar propedevtikasi 1,2 | 180 | 6 | 4-5 |
| 1.26 | IKKKXDT16-1012 | Ichki kasalliklar. Kasb kasalli-klari.XDT | 360 | 12 | 6-10 |
| 1.27 | KAI11204 | Klinik allergologiya, immunologiya | 120 | 4 | 12 |
| 1.28 | TR16-706 | Tibbiy radiologiya | 180 | 6 | 6-7 |
| 1.29 | DVBDV16-706 | Dermatovenerologiya va bolalar dermatovenerologiyasi | 180 | 6 | 5-7 |
| 1.30 | EBE1805 | Endokrinologiya, Bolalar endokrinologiyasi | 150 | 5 | 8 |
| 1.31 | F11004 | Ftiziatriya | 120 | 4 | 10 |
| 1.32 | NBNTG1391006 | Nevrologiya. Bolalar nevrologiyasi. Tibbiy genetika | 240 | 8 | 6,9-10 |
| 1.33 | PNBPTP161006 | Psixiatriya, narkologiya. Bolalar psixiatriyasi. Tibbiy Psixologiya | 180 | 6 | 6,10 |
| 1.34 | STVFXA1704 | Sud tibbiyoti. Vrach faoli-yatining huquqiy asoslari | 120 | 4 | 7 |
| 1.35 | YKBYKE1791010 | Yukumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari. Epidemiologiya. | 300 | 10 | 7,9-10 |
| 1.36 | KF11104 | Klinik farmakologiya | 120 | 4 | 11 |
| 1.37 | UX15-606 | Umumiy xirurgiya | 180 | 6 | 5-6 |
| 1.38 | BX181008 | Bolalar xirurgiyasi | 240 | 8 | 8,10 |
| 1.39 | XK1704 | Xirurgik kasalliklar. | 120 | 4 | 7 |
| 1.40 | AGBK191208 | Akusherlik va ginekologiya. Bo-lalar ginekologiyasi | 240 | 8 | 9,12 |
| 1.41 | TOBTONBN18-1106 | Travmatologiya va ortopediya. Bolalar travmatologiya va ortopediyasi. Neyroxirurgiya, bolalar neyroxirurgiyasi | 180 | 6 | 8,10 |
| 1.42 | OBOBS181108 | Otorinoloringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi. Bolalar stomatologiyasi | 240 | 8 | 8,11 |
| 1.43 | OBO1804 | Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi | 120 | 4 | 8 |
| 1.44 | ARBAR1904 | Anesteziologiya va reanima-tologiya, bolalar anestezi-ologiyasi va reanimatologiyasi | 120 | 4 | 9 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.45 | OBOG161106 | Onkologiya, bolalar onkologiyasi. Gematologiya. | 180 | 6 | 6,11 |
| 1.46 | TTYo11104 | Tez tibbiy yordam | 120 | 4 | 11 |
| 1.47 | RST11204- | Reablitologiya, sport tibbiyoti. | 120 | 4 | 12 |
| 1.48 | OSHAG11204 | Oilaviy shifokorlik akusherlik va ginekologiya | 120 | 4 | 12 |
| 1.49 | OSHX11104 | Oilaviy shifokorlik xirurgiya | 120 | 4 | 11 |
| 1.50 | OSHT1111206 | Oilaviy shifokorlik terapya | 180 | 6 | 11-12 |
| 1.51 | OSHP1111208 | Oilaviy shifokorlik pediatriya | 240 | 8 | 11-12 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlar** | **420** | **14** | |
| 2.00 | | *Tanlov fanlar (6 ta fan)* | **420** | **14** | *3,5,6,1 1,12* |
| | | **Jami** | **9870** | **329** | |
| | | **Malakaviy amaliyot** | **810** | **27** | **1-11** |
| | | **Yakuniy davlat attestatsiyasi** | **120** | **4** | **8** |
| | | **Jami** | **930** | **31** | |
| | | **HAMMASI** | **10800** | **360** | |

* *klinik fan (sikl)lar 3 kurs 6 semestrdan boshlanadigan tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun*

**2.3.3. *60910300 - Pediatriya ishi* ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi*:**

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semes-tri |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.00** | **MF1** | **Majburiy fanlar** | **9390** | **313** | |
| 1.01 | O'T1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | FS1204 | Falsafa | 120 | 4 | 2 |
| 1.03 | D1404 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 4 |
| 1.04 | O'RTTXT11 -208 | O'zbek (rus) tili. Tibbiyotda xorijiy til | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.05 | OAN11-312 | Odam anatomiyasi | 360 | 12 | 1,2,3 |
| 1.06 | TBUG1106 | Tibbiy biologiya. Umumiy genetika | 180 | 6 | 1 |
| 1.07 | TK1106 | Tibbiy kimyo | 180 | 6 | 1 |
| 1.08 | LTTT1204 | Lotin tili va tibbiy terminologiya | 120 | 4 | 2 |
| 1.09 | TBFTAT11-208 | Tibbiy va biologik fizika. Tibbiyotda axborot texnologiyalari | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.10 | Ps1304 | Psixologiya | 120 | 4 | 3 |
| 1.11 | GSEM12-308 | Gistologiya, sitologiya, embriologiya | 240 | 8 | 2,3 |
| 1.12 | NFZ13-408 | Normal fiziologiya | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.13 | BK13-408 | Biokimyo | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.14 | MVI13-408 | Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.15 | KA1504 | Klinik anatomiya (Operativ jarroxlik va topopgrafik anatomiya) | 120 | 4 | 5 |
| 1.16 | P15-613 | Patologiya | 390 | 13 | 5,6 |
| | PAN15-606 | Patologik anatomiya | 180 | 6 | 5,6 |
| | PFZ15-607 | Patologik fiziologiya | 210 | 7 | 5,6 |
| 1.17 | FR15-606 | Farmakologiya | 180 | 6 | 5,6 |
| 1.18 | GXGTE1406 | Gigiyena, harbiy gigiyena. Tibbiy ekologiya | 180 | 6 | 4 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.19 | JSMM1606 | Jamoat salomatligi. Marketing, menejment | 180 | 6 | 6 |
| 1.20 | TKK1204 | Tibbiyot kasbiga kirish | 120 | 4 | 2 |
| 1.21 | BKP15-608 | Bolalar kasalliklari propedevtikasi | 240 | 8 | 5,6 |
| 1.22 | P17-1018 | Pediatriya | 540 | 18 | 7,8,9,10 |
| 1.23 | N11004 | Neonatologiya | 120 | 4 | 10 |
| 1.24 | ShP11104 | Shoshilinch pediatriya | 120 | 4 | 11 |
| 1.25 | IKP15-606 | Ichki kasalliklar propedevtikasi | 180 | 6 | 5,6 |
| 1.26 | IK17-911 | Ichki kasalliklar | 330 | 11 | 7,8,9 |
| 1.27 | KAI11203 | Klinik allergologiya, immunologiya | 90 | 3 | 12 |
| 1.28 | TR1806 | Tibbiy radiologiya | 180 | 6 | 8 |
| 1.29 | DVBDV1704 | Dermatovenerologiya va bolalar dermatovenerologiyasi | 120 | 4 | 7 |
| 1.30 | EBE1805 | Endokrinologiya, bolalar endokrinologiyasi | 150 | 5 | 8 |
| 1.31 | F1704 | Ftiziatriya | 120 | 4 | 7 |
| 1.32 | NBNTG11006 | Nevrologiya. Bolalar nevrologiyasi, tibbiy genetika | 180 | 6 | 10 |
| 1.33 | PNBPTP11006 | Psixiatriya, narkologiya. Bolalar psixiatriyasi. Tibbiy psixologiya | 180 | 6 | 10 |
| 1.34 | STVFXA1704 | Sud tibbiyoti. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari | 120 | 4 | 7 |
| 1.35 | YKBYK EP18-1010 | Yuqumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari. Epidemiologiya | 300 | 10 | 8,9,10 |
| 1.36 | KF11204 | Klinik farmakologiya | 120 | 4 | 12 |
| 1.37 | UX15-606 | Umumiy xirurgiya | 180 | 6 | 5,6 |
| 1.38 | BX17-1008 | Bolalar xirurgiyasi | 240 | 8 | 7,10 |
| 1.39 | XK1704 | Xirurgik kasalliklar | 120 | 4 | 7 |
| 1.40 | AGBK1904 | Akusherlik va ginekologiya. Bolalar ginekologiyasi | 120 | 4 | 9 |
| 1.41 | TOBTO NBN18-906 | Travmatologiya va ortopediya, HDJ. Bolalar travmatologiyasi va ortopediyasi. Neyroxirurgiya, bolalar neyroxirurgiyasi | 180 | 6 | 8,9 |
| 1.42 | OBOBS19-1106 | Otorinoloringologiya, bolalar otorinolaringologiyasi. Bolalar stomatologiyacи | 180 | 6 | 9,11 |
| 1.43 | OBO1904 | Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi | 120 | 4 | 9 |
| 1.44 | ARBAR1904 | Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi | 120 | 4 | 9 |
| 1.45 | OBOG11106 | Onkologiya, bolalar onkologiyasi. Gematologiya, HDT | 180 | 6 | 11 |
| 1.46 | TTYo11204 | Tez tibbiy yordam | 120 | 4 | 12 |
| 1.47 | RST11104 | Reablitologiya. Sport tibbiyoti | 120 | 4 | 11 |
| 1.48 | OSHAG11204 | Oilaviy shifokorlikda akusherlik va ginekologiya | 120 | 4 | 12 |
| 1.49 | OSHX11104 | Oilaviy shifokorlikda xirurgiya | 120 | 4 | 11 |
| 1.50 | OSHT111-1207 | Oilaviy shifokorlikda terapiya. Kasb kasalliklari | 210 | 7 | 11,12 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1.51 | OSHP111-1208 | Oilaviy shifokorlikda pediatriya | 240 | 8 | 11,12 |
| **2.00** | **TF2** | **Tanlov fanlar** | **480** | **16** | |
| 2.00 | | *Tanlov fanlar (6 ta fan)* | 480 | 16 | 3-4-5-6-12 |
| | | **JAMI** | | | |
| | **MM1-627** | **Malakaviy amaliyot** | 810 | 27 | 1,2,3, 4,5,6, 8,9, 10,11 |
| | **BAKYDA604** | **Birlamchi akkreditatsiya bilan yakuniy davlat attestatsiyasi** | 120 | 4 | 12 |
| | | **JAMI** | **930** | **31** | |
| | | **HAMMASI** | **10800** | **360** | |

* *Klinik fan (sikl)lar 4 kurs 7 semestrdan boshlanadigan tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun*

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

**Tayanch so'zlar:**

Pediatriya ishi, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat soxasi, bakalavrning asosiy ta'lim dasturi (bakalavr dasturi), sog'liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko'nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, diagnostika, etiologiya, patogenez, morfologiya, davolash usullari.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh tibbiyot oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari**

**IShLAB ChIQILGAN:**

**Tashkent pediatriya tibbiyot instituti**

Rektor ______________**B.T.Daminov**

2023 yil « 7 » 07

M.O'.

**KELIShILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi xuzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlariva ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish markazi**

**Direktor**______________**Sh.Yakubov**

2023 yil « 3 » 08

M.O'

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Ilm-fan, ta'lim boshqarmasi**

**Boshqarma boshlig'i**______________**O'.S.Ismailov**

2023 yil " 10 " 07

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazir o'rinbosari, Toshkent shahar sog'liqni saqlash Bosh boshqarmasi boshlig'i , Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Kuzatuv kengashi raisi**

______________**A.V.Alimov**

M.O'.

2023 yil " 10 " 07

**Muvofiqlashtiruvchi soha kengashi raisi, Toshkent tibbiyot Akademiyasi rektori**

______________**Shadmanov A.K**

M.O'.

2023 yil " 8 " 07